


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60720800 – Konchilik ishi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
5.	Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.....	10
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60720800 – Konchilik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talablari 60720800 – Konchilik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Geologiya, razvedka va konchilik ishlari jarayonlari nazariyasini o’zlashtirish va tadqiqot qilish, foydali qazilma konlarini yer osti, ochiq va geotexnologik usullarda qazib olish, ularni boyitish va qayta ishlash texnologiyalari, yer osti inshootlarini barpo qilish, burg’ilash va portlatish ishlarini olib borishni marksheyderlik ta’minlash, kon korxonalarini loyihalash, mutasaddilik qobiliyatiga yo’naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida muhandis-konchi.

60720800 – Konchilik ishi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy-tadqiqot faoliyati;
tashkiliy-boshqaruv;
loyihaviy-konstruktorlik faoliyati;
axborot-tahliliy faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60720800 – Konchilik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

respublika va xorijda chop etilgan konchilik sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o’rganish;

soha bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo’yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig’ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

foydali qazilmalar konlarining paydo bo’lishining kon-texnik, gidrogeologik va boshqa sharoitlarini batafsil o’rganish asosida foydali qazilmalarni qazib olish ishlarini rivojlantirishning oqilona va samarali sxemalarini belgilash muammolarni tahlil qila olish;

foydali qazilmalar zaxiralari, yer qa’ridagi foydali qazilmalarning qazib olinishi va yo’qotilishi, shuningdek foydali qazilmalar zaxiralarni aniqlash, ularni qazib olishga tayyorlash va ochiq hamda yer osti usulida innovasion yondashuv asosida qazib olishni qo’llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

fan, texnika va ilg’or tajriba yutuqlaridan keng foydalanish asosida geodeziya va marksheyderiya ishlarini va yer qa’rini muhofaza qilishni tashkil etish texnologiyasi va usullarini takomillashtirish;

marksheyderlik faoliyatining ishlash ko’rsatkichlarini tahlil qilish va baholash, hamda marksheyderlik ishlarini bajarishda texnik va texnologik normalar, qoidalar va standartlarga rioya qilishda faoliyat samaradorligini oshirishda va monitoring qilishda

ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo’yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

foydali qazilmalarni qazib olish korxonalarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishda, yer osti boyliklarini muhofaza qilish va mineral resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, xavfli hududlar yaqinida foydali qazilmalarni qazib olish ishlarini optimal va xavfsiz olib borish usullarini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

foydali qazilmalarni qazib olish hududida yer qa’ridan foydalanish, sanoat xavfsizligi va yer qa’rini muhofaza qilishni ta’minlash bo’yicha ishlarni rejalashtirish va muvofiqlashtirishda mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko’rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko’rish;

kon ishlarining holatini hisobga olish va nazorat qilish, ishchilar, aholi hayoti va sog’lig’i uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta’minlash, shuningdek, kon ishlarini olib borishda atrof-muhitni, bino va inshootlarni muhofaza qilishni ta’minlaydigan chora-tadbirlarning o’z vaqtida ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirishda me’yoriy hujjatlar talablarini bajarilayotganligini nazorat qilish;

kon resurslaridan oqilona va kompleks foydalanishni nazorat qilish; konchilik ishlarini bexatar olib borish, ekologik va sanoat xavfsizligini ta’minlash, konchilik korxonalarini to’xtatish ishlarida ishtirok etish qobiliyatlarini o’zlashtirish;

marksheyderlik xizmatini yanada rivojlanishi va takomillashida normativ hujjatlar, uslubiy ma’lumotnomalar, shuningdek ularni zarur asboblarni, jihozlar va materiallar bilan ta’minlashda zamonaviy, yuqori aniqlikka ega va raqamlashgan vositalarni tadbiq etish me’yorlarini bilish va amalda qo’llash;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo’g’inini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo’yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

foydali qazilmalarni razvedka qilish, yer osti, ochiq va kombinatsiyalashgan usullarda qazish, ularni boyitish va qayta ishlash, burg’ilash va portlatish ishlari jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

foydali qazilmalarni razvedka qilish, yer osti, ochiq va kombinatsiyalashgan usullarda qazish, ularni boyitish va qayta ishlash, burg’ilash va portlatish ishlari loyihasini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqishda xavfsizlikni ta’minlashni inobatga olgan holda loyihalash ishlarida ishtirok etish;

konchilik ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishni belgilash va qo’llash; foydali qazilma konlarini yer osti, ochiq va geotexnologik usullarda qazib olish texnologiyalarini hamda jarayonlarini o’zlashtirish va tadqiqot qilish;

konchilik korxonalarini loyihalash, jumladan avtomatlashtirilgan loyihalash, metodlarini tadqiqot qilish; foydali qazilmalarni ochish, qazib olish tizimlari, konlarni qazib olish tartibi, texnologik sxemalarini o’zlashtirish;

shaxta va karyerlarda tasvirga olish va kon geometrik hujjatlarni yaratish; tashilayotgan kon massasi miqdorini aniqlash, kon zaxiralarini boshqarish, ulardan oqilona va kompleks foydalanishni ta’minlashda kon geometrik va matematik modellarini qo’llash;

konchilik ishlarini bexatar olib borish, ekologik va sanoat xavfsizligini ta’minlash, konchilik korxonalarini to’xtatish va tugatish ishlarida ishtirok etish;

bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo’yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo’llash.

professional ta’lim tizimi (o’rnatilgan tartibda olgan malakasiga mos ravish)da o’quv jarayonlarini tashkil etish va qo’llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo’llay olishi;

og’zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g’oya, taklif, ta’rif va xulosalarni mantiqiy, to’g’ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko’rib chiqish, o’z-o’zini rivojlantirish, malaka oshirish va o’z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o’zgartirishga qodir bo’lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

konchilik ishlab chiqarishida texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tatbiq qilishni tashkil qilish va boshqarish;

foydali qazilma konlaridan oqilona va bexatar foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish;

marksheyderlik geodezik asboblarni sinash, tekshirish, tajribadan o'tkazish va konchiik jarayonlarni modellarini yaratishda tatbiq etish, geoinformatsion tizim va texnologiyalarini marksheyderlik masalalarini yechishda qo'llash;

konchilik ishi, marksheyderlik ishi sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet el va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish;

konchilik korxonalarini loyihalash va qurish ishlarini marksheyderlik ta'minoti; yer osti sharoitida tuziladigan poligonometriya tarmoqlari; balandlik o'tmetkasini tik stvol orqali uzatish tartibini, geometrik nivelirlashni, trigonometrik nivelirlash natijalarini matematik ishlab chiqish; marksheyderlik grafikaviy hujjatlarning turlarini, vazifasini, tasnifini, nomenklaturasi haqida tasavvur va bilimga ega bo'lish;

zamonaviy optik, elektron va lazerli teodolitlar yordamida burchaklarni yuqori aniqlikda o'lchash; yer osti sharoitida masofani bevosita va bilvosita yuqori aniqlikda o'lchash; kon lahimlarini yo'naltirish-tutashtirish ishlarida yondashuv masalasini yechish va uni tahlil qilish; qarama-qarshi yo'nalishlarda qazilayotgan kon lahimlari kavjoylarining tutashishini oldindan hisoblash, tahlil va prognoz qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

quriladigan inshootning asosiy unsurlarini loyihadan joyga ko'chirish va belgilash usullari, ularning aniqliklarini nazorat qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha birinchi bosqich ikkinchi semestrda 2 haftalik, uchunchi bosqich oltinchi semestrda 4 haftalik va to'ttinchi bosqichning sakkizinchi semestrda 15 haftalik uzluksiz malakaviy amaliyot o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	KIM1204	Kimyo	120	4	2
1.04	XT12408	Xorijiy til	240	8	2,4
1.05	FIZ11210	Fizika	300	10	1,2
1.06	OM112314	Oliy matematika	420	14	1,2,3
1.07	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1104	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.09	MKG1104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.10	MS1404	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	4
1.11	SIM1604	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	6
1.12	FAL1504	Falsafa	120	4	5
1.13	EKO1504	Ekologiya	120	4	5
1.14	HFX1704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.15	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.16	GEOD1106	Geodeziya	180	6	1
1.17	MI 1305	Marksheyderlik ishi	150	5	3
1.18	KIA13410	Kon ishlari asoslari	300	10	3,4
1.19	GEDGGE12309	Geologiya va gidrogeologiya	270	9	2,3
Marksheyderlik ishi faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.20	KG16710	Kon geometriyasi	300	10	6,7
1.21	MGALT14508	Marksheyderlik geodezik asbobshunoslik va lazerli texnologiyalar	240	8	4,5
1.22	MARK16710	Marksheyderiya	300	10	6,7
1.23	MIL1704	Marksheyderlik ishlarini loyihalash	120	4	7
1.24	FOTA1404	Fotogrammetriya asoslari	120	4	4
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	4-7
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	1680	56	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-konchi (marksheyder)			
Ochiq konchilik ishlari faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.20	KOUQOJ16710	Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish jarayonlari	300	10	6,7
1.21	NKQO14508	Noruda konlarni qazib olish	240	8	4,5
1.22	FQKOUQOT 16710	Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish texnologiyasi	300	10	6,7
1.23	KA1704	Karyer aerologiyasi	120	4	7
1.24	BPI1404	Burg'ilash va portlatish ishlari	120	4	4
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	4-7
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	1680	56	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-konchi			
Yer osti konchilik ishlari faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.20	ShRKIJ16710	Shaxta va rudniklarda konchilik ishlari jarayonlari	300	10	6,7
1.21	KLO'T14508	Kon lahimlarini o'tish texnologiyasi	240	8	4,5

1.22	FQKYUQOT 16710	Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olish texnologiyasi	300	10	6,7
1.23	KKA1704	Kon korxonalarini aerologiyasi	120	4	7
1.24	BPI1404	Burg' ilash va portlatish ishlari	120	4	4
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	4-7
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	1680	56	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-konchi			
Foydali qazilmalarni boyitish faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.20	NFQB16710	Noruda foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi	300	10	6,7
1.21	FQBTJ14507	Foydali qazilmalarni boyitishga tayyorlash jarayonlari	210	7	4,5
1.22	MRBT16710	Metalli rudalarni boyitish texnologiyasi	300	10	6,7
1.23	BFL1704	Boyitish fabrikalarini loyihalash	120	4	7
1.24	BOM1405	Boyitma olish manbalari	150	5	4
2.00		Tanlov fanlari	1680	56	4-7
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	1680	56	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-konchi			
		Jami:	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	1140	38	(2,4,6,8)
		Jami:	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

5. Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.

Dual ta'lim kadrlar iste'molchilarning talablaridan kelib chiqqan holda kerakli amaliy bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim jarayoni tashkil etiladi.

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o’quv reja va o’quv dasturlari, profil, o’qib-o’rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o’quv jarayoni, davlat attestatsiyasi, oliy ta’lim muassasasi, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, konchilikdagi fizik jarayonlar, shaxta, karer, rudnik, razrez, boyitish, portlatish, kon mashinalari, transport mashinalari, konveyer, geodezik asboblari, yangi sputnik texnologiyalar, global navigatsion tizimlar, foydali qazilma konlari, sanoat xavfsizligi, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari



ISHLAB CHIQUILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor  akademik. S.M. Turabdjanyov

202_ yil " _____ " _____

M.O'.




Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti


Rektor  prof. B.T.Mardonov

202_ yil " _____ " _____

M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  M. Boltabayev



202_ yil " _____ " _____

M.O'.

“Olmaliq KMK” AJ

Bosh muhandisining texnologiyalar
bo'yicha o'rinbosari – Texnik bo'lim
boshlig'i



 A.M. Saynazarov

202_ yil " _____ " _____

“O'zbekko'mir” AJ
Bosh muhandisi v.v.b.




 J.Z. Mutalipov

202_ yil " _____ " _____

M.O'.

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi
qo'mitasi

Boshqarma boshlig'i o'rinbosari
 O.A. Djurayev



202_ yil " _____ " _____

M.O'.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60720800 – Konchilik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh. “___” _____ **2024 yil**

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari PhD O.A.Djuraev, “Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti” rektori prof. B.T.Mardonov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori akademik. S.M.Turabdjano birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60720800 – Konchilik ishi ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli, O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O'z DSt 3557:2021 “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti” rektori

O'zbekiston Respublikasi
Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi
qo'mitasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori

prof. B.T.Mardonov

O.A.Djurayev

akad. S.M.Turabdjano

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60720800 – Konchilik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy
ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy
bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv
rejasiga
TAQRIZ**

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60720800 – Konchilik ishi ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”, qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli, O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O'z DSt 3557:2021 “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60720800 – Konchilik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan

mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, **60720800 – Konchilik ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

O'zbekiston Respublikasi
Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi
qo'mitasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari



O.A.Djurayev